

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**



**"TASDIQLAYMAN"**

Toshkent davlat agrar universiteti

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

*S. Boboyev* S. Boboyev

2025 yil "04" 02

Ro'yxatga olindi: № BD- 60810400- 2.02

2025 yil "04" 02

**CHORVACHILIK ASOSLARI**

**O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	800000	- Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya
Ta'lim sohasi:	810000	- Qishloq xo'jaligi
Ta'lim mutaxassisligi:	60810400	- Agronomiya

**TOSHKENT – 2025**

Fan/modul kodi ChASB2304		O'quv yili 2025-2026	Semestr 3	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Tanlov fani		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Chorvachilik asoslari	48	72	120	

2. I. Fanning mazmuni

**Fanni o'qitishdan maqsad** - talabalarga qishloq xo'jalik xayvonlarini mahsuldorligini (go'sht, sut, tuxum, teri va jun) oshirish va xayvonlar zotlari mahsuldorligini yaxshilash, ularni ratsion asosida oqsil, vitamin va boshqa biologik faol moddalar bilan to'la ta'minlaydigan oziqalar bilan oziqlantirish hamda yuqori darajada sifatli chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni amaliyotga tadbiiq etish bo'yicha talabalarda professional bilim va ko'nikmani hosil qilishdan iborat.

**Fanning asosiy vazifasi** – chorva mollarining kelib chiqishi, anatomik-fiziologik va mahsuldorlik yo'nalishining xususiyatlari, konstitutsiyasi, ekstereri, intereri, ularni urchitish va naslchilik ishlarini o'tkazish yo'llari, yem-xashak turlari, norma asosida oziqlantirish masalalari qoramolchilik, qo'ychilik, parrandachilik, yilqichilik tarmoqlari to'g'risida hamda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va birlamchi qayta ishlash texnologiyalarini tushuntirish hamda mos keluvchi chorvachilik bo'yicha xorijiy boy tajribalarni o'rgatishdan iborat.

I. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

**1-mavzu. Kirish. Chorrvachilik sohasiningning xalq xo'jaligidagi ahamiyati va rivojlanish istiqbollari.**

O'zbekistonda chorvachilikni rivojlanish tarixi. Chorvachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati, chorvachilikda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar.

Respublikamiz dehqon (fermer) xo'jaliklarini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar. Chorvachilikdagi barcha tarmoqlar, ulardan olinadigan mahsulot turlari, chorva mahsulotlarining insonlar uchun ahamiyati, chorva mahsulotlarini ishlab chiqarish miqdorlari.

Chorva mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasini ilm-fan yutuqlari asosida amalga oshirish.

**2-mavzu. Qishloq xo'jalik hayvonlarini kelib chiqishi va yovvoyi ajdodlari.**

Qishloq xo'jalik hayvonlarini barcha turlari bo'yicha yovvoyi ajdodlari va ularni tavsifi, yovvoyi ajdodlarini qo'lga o'rgatish va xonakilashtirish, xonakilashtirishda yuzaga kelgan o'zgarishlar. Xonakilashtirish davrlari.

**3-mavzu. Qishloq xo'jalik xayvonlarini o'sish va rivojlanish qonuniyatlari.**

Qishloq xo'jalik hayvonlarini o'sish va rivojlanish davrlari, o'sish va rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar. Embrionalizm va infantilizm.



**4-mavzu. Qishloq xo'jalik hayvonlarini urchitish asoslari va urchitish usullari.** Qishloq xo'jalik hayvonlarini urchitish asoslarini sof zotli urchitish chatishtirish va duragaylash. Qarindoshli urchitish. Tizim va oilalar bo'yicha urchitish.

**5-mavzu. Chorvachilikda naslchilik ishlarini olib borish tanlash va saralash.** Naslchilik ishlarining hayvonlar mahsuldorligini oshirish va zotni yaxshilashdagi roli. Tanlash, saralashning qishloq xo'jalik hayvonlari konstitutsiyasini va ekstereri hamda mahsuldorligini oshirishdagi ahamiyati. Keng ko'lamli naslchilik ishlarini olib borish.

**6-mavzu. Oziqlantirish asoslari. Klassifikatsiyasi. Ozuqa turlari va ratsion haqida tushuncha. Sog'in sigirlarni oziqlantirish.**

O'simliklardan tayyorlanadigan ozuqalar (ko'k ozuqalar, ildizmevalilar va poliz ekinlari, dag'al ozuqalar, omixta yemlar, donli ozuqalar), texnikaviy ishlab chiqarish chiqindilari (suyak uni, qon uni, yog'i olingan sut), tarkibida azot tutuvchi sintetik moddalar.

Ratsion tuzishni mohiyati, sog'in sigirlar, nasldor buqalar, buzoqlar, qo'ylar, otlar, cho'chqalar va parrandalar uchun ratsion tuzish prinsiplari. Ratsion strukturasi.

**7-mavzu. Qoramolchilik. Qoramollarni klassifikatsiyasi, biologik xususiyatlari va zotlari.**

Qoramolchilikning mahsulot yo'nalishiga qarab tabaqalanishi, sut, sut-go'sht va go'sht yo'nalishidagi qoramol zotlari. O'zbekiston sharoitida rayonlashtirilgan qoramol zotlari va ularning tavsifi.

**8-mavzu. Qoramollarning sut va go'sht mahsuldorligi. Sanoat asosida sut va go'sht ishlab chiqarish texnologiyasi.**

Sigirlarning sut mahsuldorligi va unga ta'sir etuvchi omillar. Sigirlarni qo'lda va mashinadi sog'ish va ularning afzalligi. Sigirlarni mashinada sog'ishga yaroqliligi va uni aniqlash. Sog'ish texnikasi. Sut berish tezligini aniqlash. Yelin va so'rg'ichlar shakli. Qoramollarning go'sht mahsuldorligini ta'rifi. Go'shtdorlik va uning sifatiga ta'sir etuvchi omillar. Go'shtning sifati va hisob-kitobi. Sanoat asosida go'sht ishlab chiqarish texnologiyasi.

**9-mavzu. Qo'ychilik. Qo'ylar klassifikatsiyasi, biologik xususiyatlari va zotlari.**

Qo'ychilik uning ahamiyati, hozirgi holati va kelajagi. Qo'ylarni biologik xususiyatlari. Qo'y zotlari. Mahsulot yo'nalishiga qarab O'zbekiston Respublikasida rejali ravishda rayonlashtirilgan qo'y zotlarini tavsifi.

**10-mavzu. Qo'ylar mahsuldorligi va qo'ychilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi.**

Qo'ylarning go'sht, sut, jun, teri mahsuldorligi. Qochirish va to'l olish mavsumini o'tkazish.

**11-mavzu. Parrandachilikni ahamiyati va biologik xususiyatlari. Parranda zotlari va go'sht, tuxum ishlab chiqarish texnologiyasi.**

Parrandachilikni xalq xo'jaligidagi ahamiyati, parrandalarning biologik xususiyatlari va mahsuldorlik xususiyatlari. Parrandalarni go'sht mahsuldorligi. Parrandalar klassifikatsiyasi. Parranda zotlari



## 12-mavzu. Ot sporti va poyga.

Yilqichilik. Otlarning biologik xususiyatlari, zotlari. O'zbekistonda rejali urchitilayotgan ot zotlari. Otlarni urchitish, oziqlantirish va asrash. Qulun va toylarni o'stirish. Otlardan olinadigan mahsulot. Ot sporti.

### III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

*Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

1. Qishloq xo'jalik hayvonlarini ekster'erini aniqlash, tana o'lchamlari va indekslari, tamg'alash usullari.
2. Qishloq xo'jalik hayvonlarini tirik vaznini hamda yoshini aniqlash usullari.
3. Qishloq xo'jalik hayvonlarini o'sishini hisobga olish.
4. Chorvachilikda qo'llaniladigan birlamchi zootexnika xujjatlari.
5. Fermer xo'jaliklarida dag'al va shirali ozuqalarni hisobga olish.
6. Oziqalarning kimyoviy tarkibini o'rganish va xazm bo'lish koeffitsientini aniqlash.
7. Sog'in sigirlarni oziqlantirish.
8. Sigirlarni sut mahsuldorligini hisobga olish. Fermalarda sut tarkibidagi yog' miqdorini aniqlash.
9. Xo'jalikda uzluksiz sut ishlab chiqarish texnologiyasi.
10. Qishloq xo'jalik hayvonlarini semizlik darajasini aniqlash. Qoramollarni go'sht mahsuldorligini hisobga olish.
11. Qo'ylarning jun mahsuldorligini aniqlash.
12. Parrandalarning tuxum va go'sht mahsuldorligini hisobga olish.

### IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Qishloq xo'jalik hayvonlaring individual rivojlanishi (ontogenez).
2. Chorva mollarini ozuqa moddalariga talabi.
3. O'zbekistonda rayonlashtirilgan qoramol, qo'y va echki, ot va chuchqa zotlarini tavsifi.
4. O'zbekistonda parvarishlanayotgan parranda zotlari va kroslarini tavsifi.
5. Chorva mahsulotlarini ishlab chiqarishning ilmiy va amaliy asoslari.
6. Sanoat asosida parranda go'shti yetishtirish tenologiyasi.
7. Sanoat asosida tuxum yetishtirish tenologiyasi.
8. Mahsulotlarga birlamchi ishlov berish va marketeng xizmati ko'rsatishda ilg'or fermer xo'jaliklaridagi texnologik jarayonlar
9. Hayvon mahsulotlaridan olinadigan ozuqalar tavsifi.
10. Qishloq xo'jalik hayvonlarini kelib chiqishini o'rganish usullari.
11. Silos tayyorlash texnologiyasi
12. Senaj tayyorlash texnologiyasi.
13. Pichan tayyorlash texnologiyasi.



14. Qishloq xo'jaligi hayvonlarini urchitish usullari
15. Chatishtirish usullari va ularni tavsifi.
16. Gibridlash yo'li bilan yaratilgan qoramol zotini tavsifi.
17. O'zbekistonda yaratilgan qoramol zotini tavsifi.
18. O'zbekistonda yaratilgan qo'y zotini tavsifi.
19. O'zbekistonda yaratilgan ot zotini tavsifi.
20. Teri beruvchi qo'y zotini tavsifi.
21. Universal tip yo'nalishidagi chuchqa zotlarini tavsifi.
22. Mayin jun beruvchi qo'y zotlarini tavsifi.
23. Ozuqa sifatini aniqlash usullari.
24. Sigirlarni sog'ish usullari va texnologiyasi.
25. Go'shtni morfologik tuzilishi va kimyoviy tarkibi.
26. Barcha qishloq xo'jalik hayvonlar sutini kimyoviy tarkibi.
27. Sigirlarni mashinada sog'ishga yaroqliligini aniqlashdagi talablar.
28. Inkubatsiyaga qo'yiladigan tuxumlarga talablar.
29. Qoramolchilikda naslchilik ishlari.
30. Qo'ychilikda naslchilik ishlari.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

### 3. V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan komponentsiya)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- Chorva hayvonlarning biologik xususiyatlarini, kelib chiqishi tana tuzilishi, sut va go'sht mahsuldorligi va mahsuldorligini hisoblash va baholashni ularga ta'sir qiluvchi omillarni, O'zbekistonning rejali qoramol zotlarini, naslchilik rejasini tuzishni, ozuqalarning kimyoviy tarkibini va sifatini baholash usullari xaqida *tasavvurga ega bo'lishi*;

- chorva hayvonlari va qoramollarning kelib chiqishini, chorva hayvonlarini mahsulotlariga xo'jalikda dastlabki ishlov berishni, chorva hayvonlarini mahsuldorligi boshqarishni, hayvonlarga en solish, raqamlash, o'lchash va tarozida tortish usullarini, birlamchi naslchilik xujjatlarini yuritish va naslchilik ish rejasini tuzishni, sut va go'sht ishlab chiqarishni samarali usullarini qo'llashni, hayvonlarning turi, yoshi, jinsi va mahsuldorligiga qarab ozuqa me'yorlarini belgilashni *bilishi va ulardan foydalana olishi*;

- chorva hayvonlarini turli mahsuldorlik yo'nalishidagi zotlarining xususiyatlarini, hayvonlarni urchitish va urug'lantirish, ozuqalarning kimyoviy tarkibi asosida to'yimliligini baholash, ozuqalarning to'yimliligini va energetik ozuqa birligida baholashni hamda chorva hayvonlarni bonitirovka qilish *ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak*.



4.	<p align="center"><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Ma'ruzalar;</li> <li>• Interfaol keys-stadilar;</li> <li>• Seminarlar ( mantiqiy fikirlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• Guruhlarda ishlash;</li> <li>• Taqdimotlarni qilish;</li> <li>• Individual loyihalar;</li> <li>• Jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
5.	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, i yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p align="center"><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Soatov U.R. "Qishloq xo'jalik hayvonlarini urchitish". Toshkent 2024 yil.</li> <li>2. Abdolnizoyov B. "Chorvachilik asoslari" Darslik. Toshkent. 2010 yil.</li> <li>3. Nosirov U.N. "Qoramolchilik". Darslik. T, 2001 y.</li> </ol> <p align="center"><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. 1. Sh.M. Mirziyoyev 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi 28.01.2022 yildagi PF-60-son Farmoni.</li> <li>2. Sh.M. Mirziyoyev Agrar sohada ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida 07.07.2023 yildagi PQ-216-son.</li> <li>3. U.Sh.Ballasov, R.H.Hamrokulov va boshqalar. "Chorvachilikdan amaliy mashg'ulotlar" O'quv qo'llanma. T. 1999 yil.</li> <li>4. T.Sh.Akmalxonov., S.Sh.Isamuxamedov., U.T.Xodjaev., B.Sh.Yusupov. "Chorvachilikdan amaliy mashg'ulotlar" O'quv qo'llanma. Toshkent - 2009 yil.</li> <li>5. P.S.Sobirov, A.Qahhorov, S.D.Do'stqulov "Chorva mollarini urchitish" O'quv qo'llanma. Samarqand 2003 y.</li> <li>6. Marlen Feliuss, Peter A.Koolmess, Bert Theunissen. On the Breeds of Cattle – Historic and Current Classifications. 2011. Tutorial</li> <li>7. Gunter Heinz Peter Hautzinger MEAT PROCESSING TECHNOLOGY Bangkok, 2007</li> </ol> <p><b>Axborot manbaalari</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. <a href="http://www.gov.uz">www.gov.uz</a> – O'zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portali</li> <li>2. <a href="http://www.lex.uz">www.lex.uz</a> – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi</li> <li>3. <a href="http://www.Ziyo.net">www.Ziyo.net</a></li> <li>4. <a href="https://slib.uz/ru/journal/view?id=83">https://slib.uz/ru/journal/view?id=83</a></li> <li>5. <a href="https://calendar.uoguelph.ca/undergraduate-calendar/programs-majors-minors/animal-science-ansc/#requirementstext">https://calendar.uoguelph.ca/undergraduate-calendar/programs-majors-minors/animal-science-ansc/#requirementstext</a></li> <li>6. <a href="https://animalbiosciences.uoguelph.ca/sites/default/files/ansc_3120_01_f24_introduction_to_animal_nutrition.pdf">https://animalbiosciences.uoguelph.ca/sites/default/files/ansc_3120_01_f24_introduction_to_animal_nutrition.pdf</a></li> <li>7. <a href="https://animalscience.psu.edu/undergraduate/files/animal-sciences-handbook">https://animalscience.psu.edu/undergraduate/files/animal-sciences-handbook</a></li> <li>8. <a href="https://www.massey.ac.nz/study/courses/animal-production-117371/">https://www.massey.ac.nz/study/courses/animal-production-117371/</a></li> </ol>



7.	Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat agrar universiteti Kengashining 2025 ____ yil "07" 04 dagi "15" – sonli bayoni bilan ma'qullangan.
8.	<b>Fan/modul uchun ma'sular:</b> U.R. Soatov- Toshkent davlat agrar universiteti "Umumiy zootexniya va veterinariya" kafedrası professori, qishloq xo'jalik fanlari doktori. B.B.Shayusupov – Toshkent davlat agrar universiteti "Umumiy zootexniya va veterinariya" kafedrası kata o'qituvchisi, qishloq xo'jalik fanlari falsafa doktori, (PhD).
9.	<b>Taqrizchilar:</b> Xolmatov A.X. -. Chorvachilik va parrandachilik ITI katta ilmiy xodim, q.x.f.n. Shakirov Q.J. – Toshkent davlat agrar universiteti "Umumiy zootexniya va veterinariya" kafedrası professori, q.x.f.d.

Mazkur o'quv dasturi dunyoning e'tirof etgan xalqaro QS va THE reytingida nufuzli TOP-300 talikka kirgan quyidagi oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlari asosida ishlab chiqilgan.

№	OTM nomi	QS	THE	Top-300 ta'lim dasturi asosida kiritilgan qo'shimchalar	Mazkur dasturdagi mavzu nomi	Havolalar
1	University of Guelph (Kanada)	459	201	Озиклантириш асослари, озукалар классификацияси ва турлари. Ratsion. Sog'in sigirlar, nasldor buqalar, buzoqlar, qo'ylar, otlar va parrandalar uchun ratsion tuzish prinsiplari.	<b>6-mavzu.</b> <b>Species Nutrition and Feeding Overview:</b> <b>Cattle, Dairy</b> Oziqlantirish asoslari. Klassifikatsiyasi. Ozuqa turlari va ratsion haqida tushuncha. Sog'in sigirlarni oziqlantirish.	<a href="https://animalbiosciences.uoguelph.ca/sites/default/files/ansc_3120_01_f24_introduction_to_animal_nutrition.pdf">https://animalbiosciences.uoguelph.ca/sites/default/files/ansc_3120_01_f24_introduction_to_animal_nutrition.pdf</a>
2	Penn State (AQSh)	89	64	Qo'ychilik. Qo'ylar biologiyasi, mahsuldorligi, mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasi	<b>10-mavzu.</b> <b>Sheep and goat production and management</b> Qo'ylar mahsuldorligi va qo'ychilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi	<a href="https://animalscienc.e.psu.edu/undergraduate/files/animal-sciences-handbook">https://animalscienc.e.psu.edu/undergraduate/files/animal-sciences-handbook</a>
3	Massey university (New Zealand)	239	501	Yilqichilik. Otlarning biologik xususiyatlari, zotlari va ot sporti.	<b>12-mavzu.</b> <b>Equine sport and racing.</b> Ot sporti va poyga	<a href="https://www.massey.ac.nz/study/courses/animal-production-117371/">https://www.massey.ac.nz/study/courses/animal-production-117371/</a>